

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

12-son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 12 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Hadjamuratova Matlyuba Xoshimovna</i> O'ZBEKISTONDA TA'LIM TIZIMIDAGI INNOVATSION ISLOHOTLARNING NATIJALARI.....	13-16
<i>Равшанов Махмуд</i> ЗАСЛУГИ АЛИШЕРА НАВОИ В ИЗУЧЕНИИ РАЗВИТИЙ ТЮРКСКИХ ЯЗЫКОВ	17-19
<i>Tursunov Bekzot Yandashevich</i> FARG'ONA VODIYSIDA HASHAR YO'LI BILAN QURILGAN GIDROINSHOOTLAR TARIXIDAN	20-24
<i>Jumaboyev Azizjon Sayfiddin o'g'li, Shenkar Michael</i> SHARQ MAMLAKATLARIDA MIRZO ULUG'BEK ILMIY MEROSINING O'RGANILISHI	25-30
<i>Esanova Nilufar</i> O'ZBEKISTON–ROSSIYA ENERGETIK ALOQALARI TARIXI:LUKOYL MISOLIDA	31-36
<i>Asadova Ra'no Baymanovna</i> OLIY TA'LIM VA ILMIY-TEXNIK HAMKORLIK: O'ZBEKISTON HINDISTON HAMKORLIGINING ILMIY SALOHİYATI VA ISTIQBOLLARI ...	37-40
<i>Aytmuratova Janilsin</i> FROM THE HISTORY OF THE DEVELOPMENT OF ARCHAEOLOGICAL SCIENCE IN KARAKALPAKSTAN	41-44
<i>Toreniyazov Jalgas Yerjanovich, Rzaeva Manzura Abatovna</i> JANUBIY OROL BO'YI SHAHARLARI TARIXI BO'YICHA MANBALAR (SHARQ MANBALARI).....	45-49
<i>Baqoyev Umidjon Shuhrat o'g'li</i> ABBOS I VA VALI MUHAMMADXON O'RTASIDAGI SIYOSIY ALOQALAR	50-55
<i>Mo'minov Xusanboy Madaminjonovich, Qodirjonov Omadjon Tavakkaljon o'g'li</i> ANDIJON VILOYATI SUV XO'JALIGI BIRLASHMASI FAOLIYATI TARIXIDAN (1991-1996-YILLAR MISOLIDA).....	56-60
<i>Elboyeva Shaxnoza</i> XOTIN-QIZLARNING PEDAGOGIK FAOLIYATDA TUTGAN O'RNI: TARIXIY JARAYON VA HOZIRGI TENDENSIYALAR	61-65
<i>Choriyeva Nargiza Ibotovna</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASIDA TURIZM SOHASINING HUQUQIY ASOSLARI VA UNING ZAMONAVIY RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	66-69
<i>Fayzullayev Oybek</i> O'RTA OSIYO XONLIKLAR TARIXINI O'RGANISH (XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHIDAGI RUS MANBALARI ASOSIDA)	70-74
<i>Norboyev Ravshan Saydulla o'g'li</i> SHIMOLI-G'ARBIY BAQTRIYANING ELLINIZM DAVRI ARXEOLGIK YODGORLIKLARI TIPOLOGIYASI	75-79
<i>Rajabova Nazira Shaxobovna</i> O'ZBEK XALQ AFSONALARIDA AYOL OBRAZLARINING TASVIRLARI	80-84

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Gabbarov Sabit Nietali'evich

QO'Y VA ECHKILAR BOSH SONINI EKONOMETRIK MODELLAR ASOSIDA
PROGNOZLASH VA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI
(QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI QO'NG'IROT TUMANI MISOLIDA) 85-89

Xolmurotov Fozil

XORAZM VILOYATIDA EKSPORT NATIJALARI VA REAL SEKTOR
RESURSLARI O'RTASIDAGI KO'P O'LCHOVLI BOG'LIQLIK 90-103

Raximov Faxriddin Shavkatovich

TA'LIM TASHKILOTLARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING MARKETING
SAMARADORLIGIGA TA'SIRI 104-116

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

Xoliqov Yunus Ortiqovich

YANGI O'ZBEKISTONDA MILLATLARARO MADANIYATNI
YUKSALTIRISH STRATEGIYASI 117-121

Farxodjonova Nodira Farxodjon qizi

JADIDLAR MEROSI VA ZAMONAVIY JAMIYAT BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA
MA'NAVIY QADRIYATLARINING ROLI 122-128

Jumayeva Shaxlo Suyunovna

TALABALARDA INTELLEKTUAL MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH OMILLARI 129-133

Yazdonova Saxiba Kurbanovna, Sanaqulov Sardor Isaqulovich

SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI BOSHQARISH METODIKASI 134-138

Danabayev Xurshid Napasovich

SPORT TURLARI VA FALSAFIY-ESTETIKANING DIALEKTIK TAHLILI 139-142

Shokirov Tohirjon

CHOLG'U SOZLARINING YOSHLARNING MA'NAVIY YUKSALISHIDAGI
O'RNI VA AHAMIYATI (DUTOR VA RUBOB SOZLARI MISOLIDA) 143-148

Raxmatov Alisher Obidovich

YANGI O'ZBEKISTONDA SHAXS ZAMONAVIY IJTIMOYIY JARAYONLARGA
INTEGRATSIYALASHUVINING FALSAFIY TAHLILI 149-152

Abduraxmanova Nodiraxon Xusnutdinovna

HUQUQIY MADANIYAT VA DEMOKRATIYA:
IJTIMOIY FALSAFIY YONDASHUVLAR VA KONSEPSIYALAR 153-158

Axatova Dildora Axtamovna

IBN SINONING "RISOLAYI FIL-HUZN" ASARINING FALSAFIY TAHLILI 159-163

Toshiboboyev Maksud Jalilovich

AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA SUN'IY INTELLEKT VA IJTIMOYIY JARAYONLAR
DIALEKTIKASI 164-168

Abdiyev G'ayrat Ergashevich

YANGI O'ZBEKISTON SIYOSIY AMALIYOTIDA YOSHLARNING IJTIMOYIY-SIYOSIY
FAOLLIGINING NAMOYON BO'LISH SHAKLLARI 169-174

<i>Axmedova Dilrabo Sa'dullayevna</i> GLOBALIZATSIYA SHAROITIDA O'ZBEK YOSHLARINING MA'NAVIY-AXLOQIY QARASHLARIDAGI O'ZGARISHLAR	175-179
<i>Sodirjonov Muhridin Mahamadaminovich</i> RAQAMLI JAMIYATDA INSON KAPITALI RIVOJLANISHI: NAZARIY VA AMALIY JIHATLAR.....	180-187
<i>Abduraxmonov Xasan Ibroximovich</i> YOSHLAR DUNYOQARASHIDA INNOVATSION TASHABBUSLARNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	188-192
<i>Norbo'tayev Islombek Musurmonovich</i> POSTHAQIQAT SIYOSATI: ALTERNATIV AXBOROT OQIMLARI ORQALI DEZINFORMATSIYA	193-198
<i>Ergashev Alijon Boxodirovich</i> AXBOROTLASHGAN JAMIYAT SHAROITIDA MILLIY O'ZLIKNI ANGLASHNING TRANSFORMATSIYASI.....	199-203
<i>Elmuradova Surayyo Abdijalilovna</i> AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA OTA-ONA VA BOLA MUNOSABATLARINING YANGI MODEL.....	204-207
<i>Bobamirzayev Abdulaziz</i> RAZIYY AD-DIN AS-SARAXSIY HAYOTI VA ASARLARI HAQIDA ILK MA'LUMOTLAR.....	208-211
<i>Rasulov Azizxon Mukhamadqodirovich</i> AXBOROTLASHGAN JAMIYATDAGI IJTIMOY O'ZGARISHLAR HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR	212-216
<i>Do'snazarov Mirjalol Esanboy o'g'li</i> AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA HAYOT VA O'LIM MUAMMOSINING FALSAFIY-AXLOQIY MEXANIZMLARI	217-221
<i>Beshimov Xamidjon Sayidovich</i> FALSAFADA INSON QADRI TUSHUNCHASINING MAZMUN-MOHİYATI VA GENEZISI	222-226
<i>Muhammadiyev Bekzod O'ktamjon o'g'li</i> VIRTUAL MULOQOTDA SHAXSLARARO MUNOSABATLARNING TRANSFORMATSIYASI VA UNING AXLOQIY JIHATLARI.....	227-231
<i>Kdirbaev Baxadir Berdaxovich</i> AXBOROT JAMIYATIDA MEDIA MADANIYATNING SOTSIOMADANIY TRANSFORMATSIYALARDAGI ROLI.....	232-237
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Mamadaliyeva Naibaxon, Orifboyev Abdulloh</i> O'ZBEK TILIDA "HALOL" VA "HAROM" LEKSEMALARINING ZAMONAVIY SEMANTIK, PRAGMATIK VA SOTSIOMADANIY TAHLILI.....	238-245

<i>Уринбаева Дилбар Базаровна</i> СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ПЕСЕН УЗБЕКСКИХ И ТУРЕЦКИХ ПЕВЦОВ НА ОСНОВЕ КОМПЬЮТЕРНОЙ ЛИНГВИСТИКИ: НОВЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ	246-258
<i>Алиева Эльвина Аметовна, Нуруллаева Дилбар Алиевна</i> СИНТАКСИЧЕСКИЙ СПОСОБ ВЫРАЖЕНИЯ ЗНАЧЕНИЯ СРАВНЕНИЯ И ЕГО ОСНОВНЫЕ СРЕДСТВА НА ПРИМЕРЕ РАССКАЗОВ А.И. КУПРИНА	259-264
<i>Karimov Ulugbek Nusratovich</i> THE POETICS OF THE CHARACTERS' INNER WORLD IN "SPOOK COUNTRY"	265-269
<i>Sodiqova Baxtigul Ibodullayevna</i> POSTMODERN NARRATIVE TECHNIQUES IN JOHN FOWLES' WORKS: AN INTERTEXTUAL, LINGUISTIC, AND AESTHETIC APPROACH.....	270-275
<i>Tokimbetova Gulbahor Abatbayevna</i> QORAQALPOQ MUMTOZ SHOIRLAR LIRIKASINING JANRIY-TEMATIK XUSUSIYATLARI	276-279
<i>Isroilova Manzura Jamolovna</i> FRANSUZ PUBLITSISTIK MATNLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	280-284
<i>Sobirjonova Muxlisa Sobirjonovna</i> YOLG'IZLIK FENOMENINING SEMANTIK SHAKLLANISHI VA UNING HISSIY TAJRIBADAGI IFODASI.....	285-290
<i>Bobojonov Dilshod Jumakul ugli</i> THE PRAGMATIC AND LINGUO-CULTURAL CLASSIFICATION OF NEWSPAPER HEADLINES.....	291-294
<i>Shamshetova Biybiayim Janibek qizi</i> LINGVISTIKA VA MADANIYATSHUNOSLIKDA ANTROPOSENTRIZM KONSEPSIYASI	295-302
<i>Xaitova Gulhayo Tovasharovna</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA MAKON VA ZAMON KATEGORIYASI DOIRASIDAGI YAQIN-UZOQ OPPOZITSIYASINING CHOG'ISHTIRMA TAHLILI	303-307
<i>Mardanova Mohira Davron qizi</i> THE ROLE OF "THE FINANCIER" IN WORLD LINGUISTICS	308-311
<i>Khalilova Shohista Muhammadi qizi</i> COMPARATIVE ANALYSIS OF UTOPIAN AND ANTI-UTOPIAN MOTIFS IN ENGLISH AND UZBEK PROSE	312-315
<i>Davlatova Shahnoza Muhammadiyevna</i> SUD VA TERGOV MOTIVLARINING ADABIY FUNKSIYASI	316-319
<i>Rustamov Dilshodbek</i> NUTQIY MULOQOT TAVSIFI	320-323
<i>Musayev Akmaljon Ibrogimovich</i> INGLIZ VA O'ZBEK DIPLOMATIK DISKURSIDA LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLAR VA TERMINOLOGIK TIZIMNING TALQINI	324-329
<i>Shamsuddinova Diyoraxon Yorqinbek qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK MEDIADISKURSINING LISONIY TAHLILI: TUZILISHI, XUSUSIYATLARI	330-333

<i>Numonova Mashxuraxon Qobiljon qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA "SUV/WATER" KONSEPTINING LISONIY MODELLASHUVI: NOMINATIV VA KOMMUNIKATIV MAYDONLARNING QIYOSIY TADQIQI	334-342
<i>Норкулова Шахло Абдугофур кизи</i> СТИЛИСТИЧЕСКАЯ ОКРАСКА ПРОЗВИЩ И ЕЁ ВЛИЯНИЕ НА КОММУНИКАЦИЮ ...	343-345
<i>Tursunova Javhar Bakir qizi</i> O'ZBEK TILINI LINGVOKULTUROLOGIK YONDASHUV ASOSIDA O'QITISH	346-350
<i>Xoshimova Mohigul Axmatovna</i> XIX-XX ASRLAR DOSTONCHILIGIDA ADABIY TA'SIR MASALASI	351-355
<i>Омонова Мадина Аслиддиновна</i> ЛЕКСИЧЕСКИЕ ЛАКУНЫ УЗБЕКСКОЙ КУЛЬТУРЫ В РУССКОМ ЯЗЫКЕ: ПРОБЛЕМЫ НЕПЕРЕВОДИМЫХ КОНЦЕПТОВ	356-361
<i>Abdulkhakova Dilafruz Shamsiddinovna</i> PERSPECTIVES AND THEORETICAL APPROACHES TO FORMULAIC EXPRESSIONS	362-370
<i>Abduraimova Mahliyo Valijon qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA GAZ SANOAT TERMINLARINING SHAKLLANISH USULLARI.....	371-373
<i>Rajat Choudhary</i> LATIN: THE TIMELESS LANGUAGE OF MEDICINE	374-377
<i>Клеблеева Резеда Радионовна</i> МИФОПОЭТИКА КАК КОНЦЕПТУАЛЬНАЯ ОСНОВА ЛИТЕРАТУРНОГО ТВОРЧЕСТВА	378-381
<i>Irbutaeva Nigora, Ozodova Dilafruz, Xoliqova Sabina</i> RUS TILIDA SO'ZLASHMAYDIGAN TALABALAR UCHUN RUS TILI DARSLARIDA QO'SHIQ MATERIALLARIDAN FOYDALANISH	382-385
<i>Dilbarjonov Ismoiljon, Gavxaroy Isroiljon qizi</i> SPORT TERMINLARINING UMUMIY XUSUSIYATLARI	386-389
<i>Arapjonova Zebo Otabek qizi</i> THE IMPACT OF ACCENT AND PRONUNCIATION ON COMMUNICATION IN GLOBAL ENGLISH.....	390-394
<i>Qarshiyeva Muxarram Shuxratovna</i> THE ADAPTATION PROCESS OF TERMS BORROWED INTO UZBEK FROM RUSSIAN AND ENGLISH LANGUAGES.....	395-399

12.00.00 - YURIDIK FANLAR

<i>Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich</i> JAMOAVIY MEHNAT NIZOLARINI HAL ETISH: MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA.....	400-407
<i>Zokirov Sherzod Ilxom o'g'li</i> PROKURATURA ORGANLARIDA SUN'IY INTELLEKTNI JORIY QILISH ORQALI MUROJAATLAR BILAN ISHLASH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	408-415
<i>Shermatov Nuriddin, Jamshidbek Ibrokhimov</i> SUN'IY INTELLEKT (AI) VA ADDITIV ISHLAB CHIQRISH (AM) INTEGRATSIYASI SHAROITIDA INSON HUQUQLARI HAMDA FUQAROLIK-HUQUQIY JAVOBGARLIKNING NAZARIY-HUQUQIY MUAMMOLARI.....	416-428

<i>G'ulommamatova Parvina Akbarali qizi</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING KRIPTO-AKTIVLAR SOHASIDAGI JINOYATLARNI OLDINI OLISH VA TARTIBGA SOLISH BORASIDAGI XALQARO-HUQUQIY HAMKORLIGINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	429-435
<i>Djalilov Javoxir Abdumajitovich</i> ISBOT QILISHNING UMUMIY SHARTLARI MAZMUNI VA TASNIFLANISHI	436-443
<i>Normurodova Behro'za Xolmo'minovna</i> RAQAMLI DALILLARNI TO'PLASHDA XALQARO TASHKILOTLARNING O'RNI.....	444-450
<i>Ismailov Bekjon Salixovich</i> NOGIRONLIGI BO'LGAN SHAXSLAR MEHNAT HUQUQINI TA'MINLASHNING HUQUQIY KAFOLATLARI TAHLILI	451-456
<i>Mahmarahimov Ixtiyor Baxtiyorovich</i> DAVLAT XARIDLARI VA TENDER SAVDOLARIDA RAQOBATGA QARSHI XATTI-HARAKATLARNING HUQUQIY OQIBATLARI.....	457-463
<i>Almatov Sanjar Zokirovich</i> DINIY EKSTREMIZMGA QARSHI KURASHISHNING HUQUQIY ASOSLARI.....	464-467
<i>Djuraev Farxod Eshboevich</i> JINOYATCHILIKKA QARSHI KURASHDA TEZKOR-QIDIRUV FAOLIYATI USULLARINING NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI.....	468-473
<i>Sadikova Dilafruz Radjabovna</i> O'ZBEKISTONDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARIDAN FOYDALANISH SOHASIDA SUG'URTA MEKANIZMINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI.....	474-481
<i>Сайфиддинов Аклиддин Анваржон огли</i> МЕСТНОЕ ГОСУДАРСТВЕННОЕ УПРАВЛЕНИЕ В УЗБЕКИСТАНЕ: ПРАВОВЫЕ И ОРГАНИЗАЦИОННЫЕ МЕХАНИЗМЫ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ КЕНГАШЕЙ И ХОКИМИЯТОВ	482-488
<i>Olimov Abbosjon</i> SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYASI: TUSHUNCHASI, TURLARI VA TARIXIY RIVOJLANISHI.....	489-494

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

<i>Djamaldinova Shaxlo Obloberdiyevna</i> TIBBIYOT OLIYGOHI TALABALARIDA HISSIY VA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY VA USLUBIY JIHATLARI	495-500
<i>Муталипова Мавлюда Жунайдуллаевна</i> НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКАЯ СУТЬ АКЦИОЛОГИЧЕСКОГО ПОДХОДА	501-506
<i>Джуманиязов Фарход Улугбекович</i> РАЗРАБОТКА СИСТЕМЫ МЕТОДОВ И ПРИЁМОВ ОБУЧЕНИЯ, НАПРАВЛЕННЫХ НА РАЗВИТИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ СПОСОБНОСТЕЙ И КРЕАТИВНОГО МЫШЛЕНИЯ УЧАЩИХСЯ	507-510
<i>Kuvatova Nozima Baxtiyorovna</i> TA'LIM TIZIMIDA O'QITUVCHINING MULOQOT KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH	511-515

<i>Xudayberdiyeva Nilufar Bozorovna</i> TABIIY FANLARNI KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA O'QITISH TEKNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH	516-519
<i>Pirimbetov Bxit Allabaevich</i> BO'LAJAK O'QITUVCHIDA PEDAGOGIK ARTISTIZMNING TARKIBIY QISMLARI	520-526
<i>Djalolov Furqat Fattohovich</i> TA'LIM SIFATINI TA'MINLASHDA TO'LIQ O'ZLASHTIRISH TEKNOLOGIYASINING ROLI.....	527-531
<i>Uteniyazov Karimbay Kuanishbaevich, Eshmuratov Marat Tangatarovich</i> PEDAGOGICAL STRATEGIES AND THE INTEGRATION OF ICT IN TEACHING FOOD PHYSIOLOGY: INNOVATIVE APPROACHES IN HIGHER EDUCATION	532-538
<i>Habibullayeva Shoirra</i> O'ZBEK TILINI IKKINCHI TIL SIFATIDA O'QITISHDA INTERAKTIV METODLARDAN FOYDALANISHNING TAMOIYILLARI	539-542
<i>Abatov Jalğasbay Orınbaevich</i> TASVIRIY SAN'AT KOMPOZITSIYALARIDA RANGLARDAN FOYDALANISH USULLARI..	543-548
<i>Azzamov Yusuf Rajaboyevich</i> TALABALARNING MUSTAQIL TA'LIM KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA RAQAMLI RESURSLAR VA PLATFORMALAR: TAHLIL VA TASNIF.....	549-553
<i>Джумаева Зарина Бобохон кизи, Жаббарова Паризода Илхомжон кизи</i> МЕТОДИКА ПРЕПОДАВАНИЯ ОТНОСИТЕЛЬНЫХ ПРИЛАГАТЕЛЬНЫХ	554-556

Received: 20 November 2025
Accepted: 1 December 2025
Published: 15 December 2025

Article / Original Paper

THE CONCEPT OF ANTHROPOCENTRISM IN LINGUISTICS AND CULTURAL STUDIES

Shamshetova Biybiayim Janibek kizi

Independent researcher at Berdaq Karakalpak State University

Abstract. The article analyzes the philosophical roots of the concept of anthropocentrism and its interpretation in linguistics and cultural studies. Based on the fact that anthropocentrism is an approach that considers man as the center of the universe and the main criterion of all research, the stages of this concept's entry into the humanities, in particular linguistics, are shown. The relationship between the comparative-historical, systemic-structural and anthropocentric paradigms within modern linguistics is highlighted, and the need to study language from the perspective of "language in man and man in language" is emphasized. It is also shown that such areas as cognitive linguistics, linguoculturology, psycholinguistics, sociolinguistics and linguistic anthropology are inextricably linked with the anthropocentric paradigm. The article analyzes the centrality of the human factor, the functional-pragmatic approach, semantic and cognitive centrism, interdisciplinarity and the centrality of text and speech as the main principles of the anthropocentric approach, and highlights the methodological foundations that serve to interpret language in conjunction with thought and culture.

Keywords: anthropocentrism, anthropocentric paradigm, cognitive linguistics, linguoculturology, linguistic anthropology, linguistic personality, language and culture, text and discourse, functional-pragmatic approach, interdisciplinarity.

LINGVISTIKA VA MADANIYATSHUNOSLIKDA ANTROPOSENTRIZM KONSEPSIYASI

Shamshetova Biybiayim Janibek qizi

Berdag nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Maqolada antroposentrizm konsepsiyasining falsafiy ildizlari va uning tilshunoslik hamda madaniyatshunoslikdagi talqini tahlil qilinadi. Antroposentrizm insonni olam markazi va barcha tadqiqotlarning asosiy mezon sifatida qaraydigan yondashuv ekanligi asoslanib, bu konsepsiyaning gumanitar fanlarga, xususan, tilshunoslikka kirib kelish bosqichlari ko'rsatib beriladi. Zamonaviy lingvistik doirasida qiyosiy-tarixiy, tizimli-struktural va antropotsentrik paradigmalarining o'zaro munosabati yoritilib, tilni "insondagi til va tildagi inson" nuqtai nazaridan o'rganish zarurati ta'kidlanadi. Shuningdek, kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya, psixolingvistika, sotsiolingvistika va til antropologiyasi kabi yo'nalishlar antroposentrik paradigma bilan uzviy bog'liq ekani ko'rsatiladi. Maqolada inson omilining markaziyligi, funksional-pragmatik yondashuv, semantik va kognitiv sentrizm, interdisiplinarlik hamda matn va nutq markazligi antroposentrik yondashuvning asosiy prinsiplari sifatida tahlil qilinib, tilni tafakkur va madaniyat bilan birligida izohlashga xizmat qiluvchi metodologik asoslar yoritiladi.

Kalit so'zlar: antroposentrizm, antropotsentrik paradigma, kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya, til antropologiyasi, lingvistik shaxs, til va madaniyat, matn va diskurs, funksional-pragmatik yondashuv, interdisiplinarlik.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I12Y2025N52>

Kirish

Antropotsentrizm (yunoncha *antropos* – "inson" va lotincha *centrum* – "markaz") – bu insonni olamning markazi va eng muhim mavjudoti deb qarovchi falsafiy dunyoqarashdir [1].

Mazkur g'oya ko'plab madaniyatlar va falsafiy ta'limotlarda aks etgan bo'lib, unga ko'ra inson tabiatdan alohida va ustun mavqega ega, qolgan borliq inson manfaatlariga bo'ysunuvchi resurs sifatida qaraladi. Antroposentrizm atamasi ilk bor g'arb falsafasida shakllangan va Renessans davrida ilgari surilgan gumanistik qarashlar bilan uzviy bog'liq: bu davrda inson va uning faoliyati olamni anglashning asosiy o'lchoviga aylana boshlagan. Shunday qilib, tarixan antroposentrik dunyoqarash "theotsentrik" (diniy) qarashlardan insonni borliqning markaziga qo'yuvchi insonparast dunyoqarash tomon siljishni ifodalaydi. Masalan, Immanuel Kant axloqiy ta'limotida faqat insonni o'zi maqsad bo'lgan yuksak mavjudot sifatida e'tirof etadi [2] – bu ham antroposentrik yondashuvning bir ko'rinishidir.

Ilmiy-falsafiy adabiyotlarda antroposentrizm tushunchasi ko'pincha tanqidiy kontekstda qo'llanadi: masalan, ekofalsafada mutlaq antroposentrik qarashlar insoniyat va tabiat munosabatlaridagi muammolar manbai sifatida ko'riladi. Biroq, gumanitar fanlarda, xususan tilshunoslik va madaniyatshunoslikda, antroposentrizm atamasi ijobiy-ma'noda – "inson omiliga yo'naltirilganlik" ma'nosida qo'llanadi. Ya'ni, til va madaniyatni o'rganishda insonni, uning tafakkurini va faoliyatini tadqiqot markaziga qo'yish nazarda tutiladi. Bu yondashuv tilni abstrakt tizim sifatida emas, balki tirik insoniy faoliyat mahsuli sifatida o'rganishni talab etadi.

Tadqiqot usullari

Antroposentrik qarashlarning falsafiy shakllanish tarixi uzoq asrlarga borib taqaladi. Aristotel dunyoqarashida ham inson markaziy o'rin tutgan, o'rta asrlarda esa Xristian falsafasida inson "Xudoning qiyofadoshi" sifatida tabiat ustidan "hokim" etib belgilangan degan g'oya antroposentrik ruhni kuchaytirgan [1]. Keyinchalik Yevropa ma'rifatparvarligida antroposentrizm insonning bilish va ijodiy qudratiga cheksiz ishonch shaklida namoyon bo'ldi. Shu tariqa, XIX–XX asrlarga kelib, ilmiy tafakkurda ham antroposentrizm o'z ifodasini topa boshladi – insonni tadqiqotlarning boshlang'ich nuqtasi va mezon deb bilish tamoyili ko'plab sohalarga, jumladan tilshunoslikka ham kirib keldi.

Tilshunoslikdagi antroposentrik burilish asosan XX asrning ikkinchi yarmida ro'y berdi. Strukturalizm davrida til "o'zida va o'zi uchun" mavjud bo'lgan avtonom tizim sifatida o'rganilgan bo'lsa, antroposentrik paradigma buning aksiga, tilni "inson omili" orqali anglashni ilgari surdi. Tadqiqotchilarning diqqat markazi "til qanday qurilgan?" degan savoldan "til qanday va nima uchun faoliyat qiladi?" degan masalaga ko'chdi. Ma'lumki, antroposentrik paradigma – bu tadqiqotchining qiziqishini bilish obyektidan subyektga yo'naltirish demakdir, boshqacha aytganda, *"tilshunoslikda endi tilning emas, balki til egasining – insonning o'zi tadqiqot markaziga chiqadi"*. Tilni uning egasi nuqtai nazaridan o'rganish zarurati tufayli lingvistik tadqiqotlarda "til egasi", nutqiy shaxs, tafakkur, milliy madaniyat kabi tushunchalar alohida ahamiyat kasb eta boshladi [3]. Natijada, XX asr oxirida tilshunoslikda antroposentrik burilish yuzaga kelganini kuzatamiz – tilni lingvistik strukturagina emas, balki ijtimoiy va ruhiy hodisa sifatida qarash kuchaydi.

Tilshunoslikka antroposentrizm g'oyasini olib kirgan olimlar qatorida ko'plab klassiklar bor. Jumladan, V. fon Gumboldt tilni insonning ichki dunyosi va tashqi olam o'rtasidagi "ko'priki" deb atagan bo'lib, inson tili orqali o'z idroki va dunyoqarashini shakllantirishini ta'kidlagan [4]. Mashhur lingvist E.Sapir ham tilni madaniyat va tafakkur bilan bog'liq holda o'rganib, har bir xalq tili o'ziga xos dunyo manzarasini aks ettiradi degan g'oyani ilgari surgan [5]. Shuningdek, I.A. Boduen de Kurtene "til faqat individual ong va psixika ichida

mavjud” deb hisoblab, til hodisalarini inson ruhiyatidan ajratib bo‘lmasligini ko‘rsatgan [6]. Bu kabi qarashlar lingvistik tadqiqotlarda inson faktorini inobatga olish muhimligini erta bosqichlarda ko‘rsatgan bo‘lsa ham, XX asrga kelibgina yakdil antropologik yondashuvga asos soldi.

Zamonaviy lingvistikada antropotsentrizm tamoyili yetakchi ahamiyat kasb etdi. V.A.Maslova hozirgi tilshunoslikda uchta asosiy ilmiy paradigma borligini, jumladan qiyosiy-tarixiy, tizimli-strukturali va antroposentrik paradigmalardan iborat ekanligini ta’kidlaydi [7]. Uchinchi – antroposentrik paradigma tilshunoslikda inson omilini birlamchi o‘ringa qo‘yadi va shu orqali tilni chuqurroq va har tomonlama tadqiq etishga imkon beradi. Maslova fikriga ko‘ra, kognitiv tilshunoslik va lingvokulturologiya aynan antropotsentrizm g‘oyalari zaminida shakllangan bo‘lib, bu yo‘nalishlarda “tilni egasi orqali anglash” metodologiyasi ustuvor sanaladi [7]. Xuddi shuningdek, rus tilshunosligining yetuk namoyandalaridan Yu.S.Stepanov tilshunoslik fanini *“insondagi til va tildagi inson haqidagi fan”* sifatida ko‘rish kerakligini aytadi – ya’ni til tuzilishi inson mezonlariga muvofiq qurilganini u qayd etadi [8]. Demak, zamonaviy tilshunoslik nazariyasida antropotsentrizm – tilni inson bilan bog‘liq holda o‘rganish metodologiyasi sifatida mustahkam o‘rin olgan.

Tadqiqot natijalari

Lingvistika va madaniyatshunoslikda antropotsentrizmning o‘rni. Tilshunoslikda antropotsentrizm paradigmasi tilni nafaqat ichki tuzilma, balki ochiq tizim sifatida – jamiyat, inson, madaniyat va psixika bilan aloqada o‘rganishni taqozo etadi. Bugungi kunda antroposentrik yondashuv zamonaviy tilshunoslikning asosiy mezonlaridan biri sifatida qaralmoqda. Bu yondashuv tilni bevosita insonga bog‘lash, uni kommunikativ faoliyat kontekstida ko‘rib chiqish demakdir. Ayniqsa, psixolingvistika, sotsiolingvistika, pragmatika, kognitiv tilshunoslik kabi sohalar rivojlanishi bilan lingvistik tadqiqotlarda inson omiliga qiziqish ortdi. Natijada tilshunoslikda lingvistik shaxs konsepsiyasi, nutq faoliyati nazariyalari, deiksis, nutq aktlari kabi insonga doir kategoriyalar chuqur o‘rganila boshlandi. Masalan, N.D.Arutyunova tilning antroposentrik xususiyatlarini tahlil qilar ekan, insonning jismoniy xususiyatlari, ichki hissiy holatlari, aqliy va ijtimoiy munosabatlari tilda o‘z ifodasini topishini alohida qayd etadi [9]. Darhaqiqat, til sistemasida shaxs zamirida qaraladigan kategoriyalar (masalan, zamon va makon ko‘rsatkichlari – deiksislar, shaxs olmoshlari, baho-emotsional leksika va b.) tilning insoniy tabiatini namoyon qiladi. Shunday qilib, lingvistikadagi antropotsentrizm nafaqat nazariy prinsip, balki til hodisalarini izohlashda amaliy ahamiyatga ega tamoyildir.

Madaniyatshunoslik va til antropologiyasi sohalarida ham antropotsentrizm muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Madaniyatshunoslikda antropotsentrizm madaniy hodisalarni inson faoliyati va qadriyatlari prizmasida talqin etishni anglatadi. Xususan, madaniy antropologiya va etnolingvistika yo‘nalishlarida har bir xalqning tili va madaniyati – inson orqali bir-biriga bog‘liq hodisalar sifatida o‘rganiladi. Lingvokulturologiya fani bevosita antroposentrik paradigmadan kelib chiqqan bo‘lib, u til va madaniyat o‘zaro ta’sirini, til orqali madaniy mazmunning ifodalanishini tadqiq etadi. Lingvokulturologiya til birliklarini madaniy semantika nuqtai nazaridan o‘rganadi va ularning ortida turgan milliy dunyoqarash, madaniy kodlar, an’anaviy qadriyatlarni tahlil qiladi. Tadqiqotchilar qayd etishicha, lingvokulturologiya nazariyasining ildizlari V. fon Gumboldtga borib taqaladi [10]; A.A.Potebnya, E.Sapir, B.Uorf kabi olimlarning til va madaniyat bog‘liqligiga oid qarashlari ushbu soha shakllanishiga zamin

yaratgan [11]. Zamonaviy lingvokulturologiyada til va madaniyat, milliy tafakkur, lingvomadaniy kod, konsept kabi tushunchalar asosiy tadqiqot obyekti sanaladi. Masalan, lingvokulturologiyada til birliklari orasidan madaniy ma'lumot tashuvchi birliklar alohida ajratiladi: *ramzlar, mifologemlar, standartlar, metaforalar, maqollar, stereotiplar, precedent nomlar, nutq odoblari* va hokazo – bular “lingvomadaniy birliklar” deb ataladi va xalqning madaniy ongini ifodalaydi. Demak, madaniyatshunoslikda ham antropotsentrizm – inson va uning madaniy tajribasini markazga qo'yib, madaniy hodisalarni anglashga intilishdir.

Til antropologiyasi (lingvistik antropologiya) ham xuddi shu ruhda, tilni insoniyatning biologik, ijtimoiy va madaniy xususiyatlari kontekstida o'rganadi. S.V.Grinev-Grinevich tilni inson evolyutsiyasining mahsuli sifatida ko'rib, “antropolingvistika” asosida inson tafakkurining til vositasida shakllanish jarayonini tadqiq etadi [12]. U til lug'aviy tarkibining (xususan, terminologiyaning) rivojlanishi orqali inson bilimlarining tarixiy taraqqiyotini tiklash mumkinligini ko'rsatadi. Bu kabi yondashuvlar madaniyatshunoslik va tilshunoslik chorrahasida insonni markaziy figura sifatida olib, til va madaniyatning integrativ tahlilini amalga oshiradi.

Til hodisalarini tadqiq etishda antropotsentrizmning ahamiyati. Tilshunoslikda antropotsentrizmni qo'llash zaruriyati, avvalo, til tabiatining o'ziga xosligidan kelib chiqadi. Til – inson aqli mahsuli va kommunikativ vosita sifatida, uning haqiqiy mohiyati faqat inson bilan bog'liq holda tushuniladi. Struktural yondashuv til tizimini muayyan darajada muvaffaqiyat bilan tasvirlab bera olgan bo'lsa ham, tildagi ma'no va vazifa kabi qirralarni to'liq ochib berishda cheklangan edi. Chunki tilni faqat abstrakt belgilar tizimi sifatida o'rganish uning funksional qirralari – kim va nima maqsadda ishlatishi, qanday kontekstda qanday mazmun hosil qilishi – kabi jihatlarni e'tibordan chetda qoldiradi. Antroposentrik yondashuv esa aynan shu bo'shliqni to'ldiradi: u til hodisalarini insonga xos psixik jarayonlar, motivatsiya, nutqiy intensionlar nuqtai nazaridan izohlaydi. Masalan, so'z ma'nolarini o'rganishda kognitiv semantika so'z ortidagi konseptual tuzilmalarni (inson ongidagi tushunchalarni) tahlil qiladi, pragmatika esa gap aktlari orqasida yotgan maqsad va illokutsion kuchlarni (gapiruvchining niyatini) o'rganadi – bularning barchasi tilni inson faoliyati sifatida talqin qilish orqali amalga oshiriladi.

Zamonaviy tadqiqotlar ko'rsatmoqdaki, tilning ko'p qirraliligi faqat antroposentrik yondashuv yordamida to'laonli yoritilishi mumkin. Xususan, metafora va obrazlarni tahlil qilishda insonning psixologik holati va madaniy tajribasini inobatga olish kerak; so'zning ichki ma'nosi ko'pincha milliy madaniyat va dunyoqarash bilan uzviy bog'liq bo'ladi (masalan, “oila” konsepti turli xalqlarda turlicha ma'no tovlanishlariga ega). Shuningdek, nutq jarayonini tushunish uchun gapiruvchi va tinglovchining rollari, ularning nutqiy kompetensiyasi va ijtimoiy mavqeyi kabi insoniy omillarni tahlil qilish zarur. Demak, til hodisalarini tadqiq etishda antroposentrik yondashuv qo'llanishi natijasida tilning funksional, semantik va pragmatik qirralari chuqurroq ochiladi. Bu yondashuv tilning ijtimoiy xususiyatlari, shaxsiy uslub va nutq ijodi kabi ilgari e'tibordan chetda qolgan jihatlarni ham tadqiq etish imkonini berdi. Misol uchun, bolalar nutqini o'rganishga bag'ishlangan ilk pragmatik izlanishlarda [13] bolalarning nutqidagi illokutsion aktlar ularning psixologik yoshi va dunyoni bilish ishtiyoqiga bog'liq ekani, kattalarnikidan farqli pragmatik to'sqinliklar mavjudligi aniqlangan – bu kabilar faqat antroposentrik nuqtai nazar bilan yondashilgandagina ma'lum bo'ladigan faktlardir.

Tahlillardan ko‘rinadiki, antropotsentrizm nafaqat tilshunoslik nazariyasiga yangicha bilimlar kiritdi, balki uning uslubiy yondashuvlarini boyitdi. Til hodisalarini inson omili bilan bog‘lab o‘rganish fanlararo tadqiqotlarga yo‘l ochdi. Masalan, psixolingvistika va sotsiolingvistika tilni mos ravishda psixika va jamiyat bilan aloqada o‘rgansa, pragmatolingvistika tilni situatsiya va kontekst doirasida tahlil qiladi – bu barcha yo‘nalishlar aslida antroposentrik paradigmadan kelib chiqadi. D.U.Ashurova qayd etadiki, hozirgi tilshunoslikda multiditsiplinar yondashuv muhim prinsiplardan biriga aylandi: lingvistika boshqa fanlar (madaniyatshunoslik, kognitiv fanlar, antropologiya va b.) bilan integratsiyalashuvi natijasida lingvokulturologiya, kognitiv tilshunoslik, sotsiolingvistika kabi yangi sohalar shakllandi [14]. Bu esa, o‘z navbatida, tilni o‘rganishda kompleks yondashuvni kuchaytirib, bir fenomenni bir vaqtning o‘zida lingvistik, psixologik va madaniy jihatdan sharhlash imkonini berdi.

Antropotsentrizmning boshqa nazariy tushunchalar bilan aloqasi ham diqqatga sazovordir. Jumladan, kognitivizm (kognitiv tilshunoslik nazariyasi) tilni inson ongining mahsuli deb qaraydi va til orqali insonning kognitiv (idrokiy) jarayonlarini o‘rganadi – bu mazmunan antropotsentrizmga juda yaqin. Pragmatika ham tilni qo‘llovchi subyektga bog‘liq ma‘no hosil bo‘lish jarayonini tahlil qiladi, ya‘ni tilning mazmunini *“kim aytdi, kimga aytdi va nima maqsadda aytdi”* degan insoniy omillar orqali tushuntiradi. Shuningdek, neofunksionalizm kabi yondashuvlar tilning ijtimoiy va kommunikativ vazifalarini birlamchi o‘ringa qo‘yib, uning tuzilishini ham shu vazifalarga bog‘lab talqin qiladi – bu ham aslida tilni inson faoliyatining bir ko‘rinishi deb bilishga asoslanadi. Ko‘rinadiki, kognitiv, pragmatik, funksional kabi nazariy yo‘nalishlarning barchasi zamonaviy antroposentrik paradigma doirasida o‘zaro bog‘langan bo‘lib, tilshunoslikda insoniy modelni qurishga xizmat qiladi.

Munozara.

Antroposentrik yondashuvning asosiy prinsiplari. Antroposentrik yondashuv umumlingvistik paradigma sifatida bir qator nazariy-metodologik prinsiplarga ega. Quyida uning eng muhim prinsiplari keltiriladi:

- **Inson omilining markaziyligi (antroposentrizm prinsipi):** Tilshunoslik tadqiqotida inson – til egasi va uni qo‘llovchi subyekt – bosh markaz sifatida qaraladi. Barcha lingvistik hodisalar insoniy faoliyatning mahsuli va ko‘rinishi sifatida talqin etiladi. Bu prinsipga binoan, til birliklarini ularning inson hayotidagi roli va funksiyasi nuqtai nazaridan o‘rganish talab etiladi. E.S.Kubryakova ta‘kidlaganidek, ilmiy obyektlarni tadqiq etishda ularning inson uchun ahamiyati, hayotiy faoliyatdagi roli birlamchi o‘ringa chiqmog‘i lozim – ya‘ni ilmiy tahlil nigohi doimo insonga qaratilmog‘i lozim [15]. Shu tariqa, mazkur yondashuv har qanday nazariy mulohazalarning asosi sifatida inson faktorini qo‘yadi.

- **Funksionalizm va pragmatik yondashuv:** Antroposentrik paradigmaning yana bir asosi – tilni uning vazifasi va vaziyati bilan bog‘lab o‘rganish. Tilning ichki tuzilmasini tahlil qilish bilan birga, uni ishlatish jarayoni, kommunikativ maqsadlar, kontekst va nutqiy vaziyat e‘tiborga olinadi. Til birliklarining ma‘nosi va tuzilishi ularning insonlar o‘rtasidagi muloqotdagi vazifasiga ko‘ra talqin qilinadi. Masalan, gap faqat grammatik qurilma sifatida emas, balki ma‘lum nutqiy akt sifatida (iltimos, buyruq, va‘da, tasdiq kabi) o‘rganiladi, chunki uning mazmun-mohiyati gapiruvchining maqsadi va tinglovchiga ta‘siri orqali ochiladi. Demak, funksional-pragmatik prinsip tilni statik emas, balki dinamik, jarayon sifatida – insonlararo muloqot jarayoni sifatida ko‘rishni talab qiladi.

- **Semantik va kognitiv sentrizm:** Bu prinsipga muvofiq, tilshunoslikning e'tibor markazida ma'no turadi. Tilning ma'nosi esa inson tafakkuri va bilimi bilan bog'liq holda qaraladi. Semantik sentrizm til shakllaridan ko'ra mazmunni ustuvor qo'yadi – ya'ni so'z va tuzilmalarni tahlil etishda ularning orqasida turgan konseptual mazmun va ma'no maydonlari aniqlanadi. Kognitiv yondashuv esa ma'no hosil bo'lish jarayonini inson ongidagi konseptual xaritalar orqali tushuntiradi: masalan, metaforaning mazmuni insonning mental tasavvurlari va tajribasiga bog'liq ravishda talqin qilinadi. Shunday qilib, antroposentrik paradigmaning bu prinsipi tilni bilish jarayoni bilan uzviy bog'liq hodisa deb qaraydi. Til orqali inson qanday fikrlashi, dunyoni qanday kategoriya va obrazlarda ko'rishi aniqlanadi. N.D.Arutyunova fikriga ko'ra ham, insonning jismoniy va aqliy olami til orqali "shifrlangan", til vositasida biz insonning ichki tuyg'ularidan tortib ijtimoiy munosabatlarigacha bo'lgan barcha jihatlarni kuzatishimiz mumkin [9].

- **Interdisiplinarlik prinsipi:** Antroposentrik yondashuv doirasida fanlararo integratsiya muhim ahamiyatga ega. Inson omilini to'laqonli o'rganish uchun lingvistika boshqa fanlar – psixologiya, antropologiya, sotsiologiya, madaniyatshunoslik, falsafa – bilan yaqindan aloqada bo'lishi lozim. Bu prinsip tufayli lingvistik tadqiqotlarda turli metodlar uyg'unlashadi, masalan, psixolingvistik eksperiment, sotsiologik so'rov, madaniy tahlil kabi usullar qo'llaniladi. Fanlararo yondashuv natijasida yangi tarmoq yo'nalishlari paydo bo'ldi: psixolingvistika (til va psixika chorrahasida), sotsiolingvistika (til va jamiyat chorrahasida), kognitiv semantika (til va idrok chorrahasida), lingvokulturologiya (til va madaniyat chorrahasida) va hokazo. D.U.Ashurova interdisiplinarlikni zamonaviy lingvistikadagi asosiy metodologik tamoyillardan biri deb ataydi va turli fanlar konsept va uslublarining o'zaro integratsiyasini samarali yangi ilmiy natijalarga olib kelishini ta'kidlaydi [14]. Shunday qilib, antroposentrik paradigma tilni ko'p qirrali ravishda, turli nuqtai nazarlardan o'rganishga imkon yaratadi.

- **Matn va nutq markazligi (tekstotsentrizm):** Antroposentrik yondashuvga ko'ra, til hodisalarini eng to'liq tahlil qilish ularning matndagi va nutq jarayonidagi namoyonini o'rganishni talab qiladi. Zero, til tizimidagi birliklar o'z funksiyasini real matn va nutq ichidagina to'la namoyon eta oladi. Matn markazligi prinsipi til birliklarini alohida-ajratilgan holatda emas, balki matn tarkibida, muallif va auditoriya omillari bilan birgalikda ko'rib chiqishni anglatadi. Masalan, biror so'zning ma'nosi lug'aviy izohdan tashqari, u qo'llangan matndagi kontekst va muallif niyatiga ko'ra aniqlashtiriladi. Shu bois, bugungi kunda diskurs tahlili, nutq janrlari tahlili, matnning lingvopoetikasi kabi yo'nalishlar rivoj topgan. M.V.Pimenova ta'kidlaydiki, matn – bu muallif, personajlar va o'quvchi o'rtasidagi interaktiv hodisa, shuning uchun matnni tahlil qilishda uni yaratgan shaxs va uning mo'ljallangan auditoriyasi inobatga olinishi shart [16]. Matn va diskursga e'tibor berish bilan tilshunoslik insoniyatning real kommunikativ mahsulini – nutqni – tahlil markaziga qo'yadi, bu esa yuksak darajada antroposentrik yondashuvdir. Ayniqsa, badiiy matnlarning tahlilida antropotsentrizm ayni dolzarb: chunki har bir badiiy matn insonning ichki olami, muallifning niyati va o'quvchiga ta'sirini o'zida mujassam etadi. M.M.Baxtin ta'kidlaganidek, *har bir inson aslida o'z hayoti davomida bir matn yaratadi* – shaxsning o'ziga xosligi uning nutqiy faoliyati va matnlarida namoyon bo'ladi [17]. Demak, matn fenomenini tahlil qilish ham aslida insonni va uning ong mahsulini tahlil qilishdir.

Yuqoridagi prinsiplar shuni ko'rsatadiki, antroposentrik yondashuv tilshunoslik va madaniyatshunoslikda insonni tadqiqotning asosiy mezoni etib belgilaydi. Xulosa qilib aytganda, zamonaviy gumanitar fanlar poliparadigmatik xarakterga ega bo'lsa ham, ularda antroposentrik paradigma yetakchi o'rinni egallaydi. Tilni inson bilan uzviy bog'lab o'rganish – tilshunoslikdagi eng samarali va chuqur yondashuvlardan biri sifatida – tilning mazmuniy boyligi, uning jamiyat va madaniyatdagi o'rni hamda inson tafakkuriga aloqador jihatlarini keng ochib berishga xizmat qilmoqda. Bu esa, o'z navbatida, til haqidagi mukammalroq tasavvurni shakllantirib, til – tafakkur – madaniyat uyg'unligini yoritishga katta hissa qo'shmoqda. Antroposentrik qarashlar tufayli til endi faqat abstrakt tizim emas, balki insonning o'zi, uning ruhi va madaniyati aks etgan ko'zgudir – bu esa mazkur konsepsiyaning lingvistika va madaniyatshunoslik nazariyasidagi eng muhim ahamiyatidir.

Xulosa. Maqolada ko'rsatib o'tilganidek, antropotsentrizm g'oyasi dastlab falsafiy tafakkur doirasida shakllanib, insonni borliqni anglashning markaziy mezoni sifatida talqin qilgan bo'lsa, zamonaviy tilshunoslik va madaniyatshunoslikda u metodologik paradigmaga aylangan. Til endilikda faqat struktural tizim emas, balki inson tafakkuri, psixikasi va ijtimoiy-madaniy tajribasini aks ettiruvchi murakkab hodisa sifatida izohlanadi. Antroposentrik paradigma tilni egasi – nutqiy shaxs nuqtai nazaridan o'rganishni talab etadi, bu esa lingvistik tadqiqotlarda ma'no, funksiyalilik, kontekst va kommunikativ vaziyatni birlamchi o'ringa olib chiqadi. Kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya, psixolingvistika, sotsiolingvistika va til antropologiyasi kabi yo'nalishlarning shakllanishi aynan inson omiliga yo'naltirilgan yondashuv natijasi ekanligi maqolada asoslab beriladi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, antroposentrik konsepsiya til, tafakkur va madaniyat o'rtasidagi ichki uzviylikni ochib berishga xizmat qiladi. Tilni inson hayotiy faoliyati, milliy dunyoqarash va madaniy kodlar bilan bog'lab o'rganish natijasida lingvistik hodisalarning semantik, pragmatik va madaniy qatlamlari chuqurroq yoritiladi. Shu bois antropotsentrizm zamonaviy lingvistika va madaniyatshunoslik nazariyasida yetakchi metodologik yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etiladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Boslaugh, Sarah E. "Anthropocentrism". Encyclopedia Britannica, 11 Jan. 2016, <https://www.britannica.com/topic/anthropocentrism>. Accessed 17 July 2025.
2. Bird, Otto Allen, Duignan, Brian. "Immanuel Kant". Encyclopedia Britannica, 18 Apr. 2025, <https://www.britannica.com/biography/Immanuel-Kant>. Accessed 17 July 2025.
3. Седов К.Ф. Дискурс и личность: Эволюция коммуникативной компетенции. – М., 2004. – с. 5.
4. Kozlova T. The Theory of Linguistic Worldview by Wilhelm Von Humboldt and Its Connection with the Culture of Sign Language //2nd International Conference on Arts, Design and Contemporary Education. – Atlantis Press, 2016. – С. 177-180.
5. Sapir E. An introduction to the study of speech //Language. – 1921. – Т. 1. – №. 1. – С. 15.
6. Бодуэн де Куртенэ И.А. Избранные труды по общему языкознанию. — М.: Наука, 1963. – с. 9.
7. Маслова В.А. Современные направления в лингвистике: учебное пособие для студентов вузов, обучающихся по направлению «Филологическое образование» / В. А. Маслова. – Москва: Академия, 2008. – 264, - с. 17.
8. Степанов Ю.С. Изменчивый «образ языка» в науке XX века // Язык и наука конца XX века: сб. статей / под ред. акад. Ю.С.Степанова. – М.: Ин-т языкознания РАН, 1995. – С. 7-34. -с 15.

9. Арутюнова Н. Д. Язык и мир человека / Н. Д. Арутюнова. – Москва: Языки русской культуры, 1999. – 688 с. – с. 3.
10. Humboldt V. fon. The Heterogeneity of Language and Its Influence on the Intellectual Development of Mankind / Wilhelm von Humboldt // Encyclopaedia Britannica. – URL: https://en.wikipedia.org/wiki/Wilhelm_von_Humboldt. – Data obr.: 18.07.2025.
11. Потебня А.А. Мысль и язык: Избранные труды / А. А. Потебня. — Москва: Наука, 1978. — 512 с.; Sapir E. An introduction to the study of speech //Language. – 1921. – Т. 1. – №. 1.; Whorf B. L. Language, mind, and reality //ETC: A review of general semantics. – 1952. – С. 167-188.
12. Гринев-Гриневич С. В., Сорокина Э. А., Скопюк Т. Г. Основы антрополингвистики: учебное пособие для студентов вузов / С. В. Гринев-Гриневич, Э. А. Сорокина, Т. Г. Скопюк. – Москва: Академия, 2008. – 128 с. –с. 5.
13. Курбонова Г. М. Болалар нутқининг прагматик хоссалари: филол. фан. доктори дисс. автореферати. – Тошкент: ТОШДЎТАУ, 2018. – Б. 15-16.
14. Ашурова Д.У. Междисциплинарность как основной принцип современной лингвистики // Хорижий филология: тил, адабиёт. – Самарқанд, 2015. – № 3(56). – с. 5-11. –с. 6.
15. Кубрякова, Е.С. Язык и знание. На пути получения знаний о языке. Части речи с когнитивной точки зрения. Роль языка в познании мира/Е.С.Кубрякова. – Москва: Языки славянских культур, 2004. – 560 с. –с. 212.
16. Мир человека в пространстве языка: сб. науч. ст. / отв. ред. М. В. Пименова, О. Н. Морозова, К. Т. Утегенова. – Санкт-Петербург: Ин-т иностранных языков СПбГЭУ, 2017. – 368 с. – с. 13.
17. Dialogue (Bakhtin) / М.М.Bakhtin //Wikipedia. – URL: [https://en.wikipedia.org/wiki/Dialogue_\(Bakhtin\)](https://en.wikipedia.org/wiki/Dialogue_(Bakhtin)) (data obr.: 18.07.2025)

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 12 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).